

O'SMIRLAR TARBIYASI QIYINCHILIKLARI VA UNDAN CHIQIB KETISH YO'LLARI

Duysenova Gulzada Amaniyazovna

Qoraqalpog'istan Respublikasi

Nukus shahar 25-sonli maktab psixologi

Annotatsiya: O'smirlik davrining psixologik jihatlarini va ulardagi muammoviy masalalardan chiqib ketish yo'llari, o'smir yoshidagi bolalarning shakllanishi, kamolotga erishish yo'llari va bunda uchraydigan qiyinchiliklar, o'smirlar tarbiyasi: bolani boshqarish usullari,

Kalit so'zlar: o'smir, ota-ona, do'stlar, o'z-o'zini anglash, pedagog, psixolog, xarakter, kamolot, e'tibor, qiziqish, usullar

Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati 2016-yil 14-sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko'prog'i yoshlardan iborat bo'lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tamonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o'z qa'tiy pozitsiyaga ega, yurtida amalga oshirilayotgan islohatlarga befarq bo'lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intuvchan, sergayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O'zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o'rin olishning muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi. Prezidentimiz e'tibor qaratgan yoshlarning kopchiligini o'smir yoshdagilar tashkil etadi.

O'smirlik yillari bola uchun ham, ota-ona uchun ham muhim davr hisoblanadi. Bu yoshdagi bolalar hardoyim o'zining qilgan ishini, aytgan gaplarini va fikrlarini eng to'g'ri deb biladi. Ota-onalar ham o'z bolalarini hali kichkintoy deb hisoblaydi va aytgan fikrlarini ham qabul qilisha olmaydi. Bu davrdagi bolalar o'zlarini keraksiz bo'lib qolganday his qilishadi, o'zlarini katta hayotga tayyorman deb hisoblaydi, lekin moddiy va manaviy jihatdan tayyor bo'lishmagan bo'ladi. Ular ota-onadan mehr, e'tibor kutib yashashkanu uchun ham moammolar kelib chiqaveradi.

O'smirlik yoshining quyidagi o'ziga hos xususiyatlarini ajratsak bo'ladi;

1. Emocional voyaga yetmaganlik.
2. O'z xulq-atvorini to'liq nazorat qila olmaslik.
3. O'z ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyat va xoxishlarni to'g'ri baholay olmaslik.
4. Katta bo'lishga intilish.

O'smir bolalar uchun boshqa insonlar unga nisbatan adolatsizlik qilishayotganday tuyiladi. Agar, boshqalar tamonidan uning fikri rad etilsa, bola bu fikrda yanada qolishga harakat qiladi, bunday vaziyatlarda ota-onaning ahamiyati juda muhim bo'lib hisoblanadi. Ota-ona uning fikrini hurmat qilishlarini aytishi yoki unga buni bildirishi va bu masala to'g'risida alohida gaplashib olishlari kerak bo'ladi. Bunda bolaga turli turdagi savolar bilan suhbatlashib, uni to'g'ri o'ylashga undash lozim hisoblanadi.

Bazi bolalar haqiqiqatan ham tarbiyasi qiyin bo'ladi. Shuningdek, har bir bola o'ziga hos o'zgaruvchan bo'lib ularga o'qituvchilar va ota-onalarning mehr-muhabbati, sabri juda muhimdir. Bunday bolalarni munosabatlarda mustaqil o'rganish va kelajakka qaratilgan o'y - fikrlarlar yordamida, ularni rivojlantirish mumkin.

Bolaning bu yosh davrlarida faqat ota-ona emas, do'stlarning ham o'rni alohida bo'lib hisoblanadi. Bolani do'stlaridan ajratib tashlash yoki uni uyga qamash kabi ish-harakatlar bola psixologiyasiga sa'lbiy tasirini ko'rsatadi. Lekin, bolaning tarbiyasiga tasiri tegadigan noqobil do'stlar bo'lsa, ota-ona birdaniga bolani undan ajratib qoymay, unga boshqa jamoani yoki boshqa olamlarni tanishtirib, qiziqtirishi kerak bo'ladi. Endigina boyaga yetib kelayotgan farzandingizni maktabini bitta noqobil do'stlari uchun o'zgartirish yaxshi emas, sababi o'smirlarning yangi muhitga moslashib ketishi qiyin kechishi mumkin. Agar maktabdagi do'sti nomaqul bo'lsa, darsdan keyin bolaning vaqtini bosh qoldirmang va maktabda ko'p ushlanib qolmasligini ta'minlashingiz kerak. Masalan, bolaning har doyim birga ko'chada o'ynaydigan do'stlarini ota-ona yo'qtirmaydi. Uni o'sha noqobil boladan ayirish uchun, farzandingiz shu bola bilan o'tkazadigan vaqtlarni bo'sh qoldirmaslik kerak bo'ladi va farzandingizga boshqa bir davrani taklif qilish sport to'garaklari, qo'shimcha mashg'ulotlar kabilarni taklif qilishi lozim. Bunda majburlash kerek emas, aks holda bola bilan kelishmovchiliklarga duch kelishingiz mumkin, bolaga faqat tanlash imkonini berish kerak, ana shunda bola o'zi tanlov qilganday his qila olishiga erishishingiz mumkin bo'ladi. Bolani bunday usullar bilan tarbiyalashda shoshmagan ma'qul, sababi bola hali ham o'zini qidirayabdi, kichkina hatoning o'zi ham bola hayotiga sa'lbiy tasirini tekkazishi mumkin. Bolaga o'zligini topishga imkon bergan ma'qul.

O'smirlar uchun tengdoshlari bilan muloqot u mustaqil harakat qiladigan o'zining shaxsiy munosabatlari muhitiga ajraladi. U bunga haqqim bor, deb o'ylaydi, o'z huquqlarini himoya qiladi va aynan shuning uchun ham o'rtoqlari bilan bo'lgan munosabatda kattalarning o'rinsiz harakatlari yoki bunga aralashuvi o'smirning xafagarchiligiga va naroziligiga sabab bo'lishi mumkin.

O'smir uchun eng yoqimsiz vaziyat bu jamoa va o'rtoqlarning naroziligi, muloqot qilishni istamaslik, eng og'ir jazo esa ochiq yoki nooshkor olaqani uzish,

gamlashmay qoyishdir. Bu bolaga eng o'giri hisoblanadi va bolaning hatto yashashni ham istamay qo'yishi mumkin bo'lgan holatlar ham bo'lishi mumkin.

Maktabda o'qitiladigan fanlar o'smirlar uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib hizmat qiladi. J.Piajening fikri bo'yicha "Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri- til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi". Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z-o'zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Ma'lumki, o'smirlik davrida o'smirning "meni" qaytadan shakllana boradi. Uning atrofdagilari ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, yonalishi keskin o'zgaradi. O'smir yoshdagi bolaning birinchi galdagi intilishi bu o'zining katta odamlardek tutishi va buni boshqalarga ko'rsatishga urinishi hisoblanadi. Mustaqil ish qilishga urinadi va u o'zini "endi men kata bo'lib qoldim, men buni yakka o'zim ham qila olaman" deb oylaydi. Odobli, dilkash o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, serzarda bo'lib qoladi. O'smir xulqidagi bu o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi va ota-onani qattiq havotirga soladi.

Xo'sh, o'smirlarning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch nima? O'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch- uning faolyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namayon bo'lishidir. Vujudga kelgan ziddiyatlarni o'smirning psixologik kamolotni ta'minlash, faolyat turlarini murakkablashtirish, uning shaxsida yangi psixologik fazilatlarini tarkib toptirish orqali asta-sekin yo'qotish mumkin.

Ota-onalarning o'smirlarga shu erkinligini bermasligi yoki o'smirning shunday deb bilishi natijasida, ular ota-onaga qarshi pozitsiyada bo'ladilar. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ana shu muloqotva munosabat asosida o'smirlarda g'urur hissi shakllana boshlaydi. Albatta, g'urur me'yor va qoidalari kattalardan o'rganiladi, lekin o'z g'ururini qanday himoya qilishi o'smirlarning alohida nazoratida bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI;

1. UMUMIY PSIXOLOGIYA. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Sh.A.Do'stmuhamedova, X.A.Tillashayxova, B.Baykunosova, G.Ziyavitdinova. TOSHKENT-2020. 143-145-bet.
2. Nishanova.Z.T., G.K.Alimova. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya. Toshkent -2019. – 435 b.